

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.O.Raxmonova	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
Sh.G.Akbarova	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
Sh.G.Akbarova	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri.....	1111
Sh.G.Akbarova	
О некоторых тайнах Французских артиклей.....	1115
D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
G.S.Mirzayeva	
Lingvokultremalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
N.K.Abbasova	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
A.A.Qayumov, A.B.Kosimova	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi.....	1130
D.I.Mirzayeva	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida.....	1137
Sh.B.Dushatova	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms.....	1140
Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
Z.M.Xalilova	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida.....	1148
A.S.Toshmatov	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education).....	1153
N.X.Qurbonov	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners.....	1160
D.E.Normatova	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
D.R.Axmadaliyeva	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
N.Sh.Abdullayeva	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
S.A.Aliyeva	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
S.A.Aliyeva	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	1185
M.A.Axundjanova	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students.....	1189
R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari.....	1193
F.B.Abduraximova	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi.....	1203
Sh.F.Latipov	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
L.T.Galimullina	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals.....	1210



UO'K: 811.81'373.611

TURLI TIZIMLI TILLARDA SO'Z YASALISHINING UMUMIY VA FARQLI JIHALTLARI

ОБЩИЕ И ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В
РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХGENERAL AND DIFFERENT ASPECTS OF WORD FORMATION IN NON-
RELATED LANGUAGESShukurov Raxmatillo Mirzatillayevich¹¹Farg'ona davlat universiteti filologi fanlari nomzodi, dotsentAbduraximova Feruza Boxadirovna² ²Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi

Annotatsiya

Hozirgi kunga qadar so'z yasalishi, uning hosil bo'lish turlari haqida juda ko'plab fikrlar mavjud. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'z yasalishi borasida qadimgi tilshunoslik rivojlanish davridan qilingan ishlar, yangi so'zlarni yasash usullari har ikki tilda misollar bilan yoritib berilgan. Hozirgi tilshunoslik davriga kelib so'z yasalishi har ikki tilda ham alohida bo'lim sifatida ajralib chiqqanligi tushuntirib berilgan. Maqolada har ikki tilning so'z yasalish usuli borasidagi yetkachi tilshunoslari I.V.Arnold, R.Quirk, A.Zapata, Y.N.Bortnichuk, A.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayevning va boshqa tadqiqodchilarning ilmiy ishlariga tayangan holda o'xshashlik hamda farqli jihatlari misollar bilan yoritib berilgan.

Аннотация

На сегодняшний день существует множество мнений о словообразовании, видах его образования. В данной статье предпринята попытка осветить работы по словообразованию в английском и узбекском языках с древнейших времен развития лингвистики, способы образования новых слов на примерах в обоих языках. Объясняется, что к современному лингвистическому периоду словообразование выделилось в отдельный раздел в обоих языках. В статье опираясь на научные труды ведущих лингвистов И.В.Арнольд, Р.Квирк, А.Запата, Ю.Н.Бортничук, А.Гуломов, А.Ходжиев, Ш.Рахматуллаева и других исследователей, приведены примеры сходств и различий о способе словообразования обоих языков.

Abstract

To this day, there is a lot of speculation about how the a new word is made and how it is produced. This article tries to illustrate the work done in the development of ancient linguistics on the formation of words in English and Uzbek, the methods of making new words with examples in both languages. It has been explained that in the modern age of linguistics, word formation has emerged as a separate section in both languages. The article, based on the scientific work of I.V.Arnold, R.Quirk, A.Zapata, Y.N.Bortnichuk, A.Gulomov, A.Khodjiev, Sh. Rahmatullaev on the method of word formation in both languages.

Kalit so'zlar: leksema, affiksatsiya, suffiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya, konversiya, derivatsiya, prefiks, reduplikatsiya, sintaktik kategoriya.

Ключевые слова: лексема, аффиксация, суффиксация, композиция, аббревиация, конверсия, деривация, префикс, редупликация, синтактик категория.

Key words: lexeme, affixation, suffixation, composition, abbreviation, conversion, derivation, prefix, reduplication, syntactic category.

KIRISH

So'zlarning yasalishi va unga doir masalalar tilshunoslikning tarixiy davrlaridan o'rganilib kelinayotgan obyekti bo'lib, unga doir har qanday masala o'rganish uchun muhim omil hisoblanadi. Turli tizimli tillarda (o'zbek va ingliz) so'zlarning yasalishi umumiy xarakterga ega ekanligi, barcha tillarda so'zlarning yasalishi universal xususiyatlarining mavjud ekanligini anglatadi. So'z yasalish jarayoni doimiy harakatdadir yoki so'z yasovchi vositalar doimiy rivojlanib turadi. Mana shu asnodda tilda yangi leksemalar paydo bo'ladi va har qanday tilning lug'at tarkibi boyishiga sabab bo'ladi. Turli tizimli tillarda so'z yasalishi sistemasining mavjudligi tipologik jihatdan tillarga xos umumiy

xususiyatdir. Barcha tillarda yasash xususiyati mavjud, biroq so'z yasashi tillarda turli xil darajada bo'ladi, ya'ni ba'zi turdagi tillarga affiksatsiya xos, boshqasiga kompozitsiya, yana boshqasiga – konversiya va hokazo. So'z yasash sistemasida yangi so'zlarni hosil qilish turlarining umumiy va farqli xususiyatlarini o'zbek va ingliz tillari misollari orqali yoritib berishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yaqin kunlarga ingliz tilshunosligida so'z yasashi yo grammatika bo'limining bir qismi yoki leksikologiya bo'limining bir qismi sifatida qaralib kelingan. XX asrning 70- yillariga kelib german tillarida so'z yasashi tilshunoslikning aloxida bo'limi sifatida shakllangan. Ingliz tilining so'z yasash tizimi o'zining hosil bo'lish va qo'shimchalarning grammatik xususiyatlariga ega. [2;106] O'zbek tilida eski ta'limotga asosan so'z yasashi va so'z o'zgarishi morfologiya bo'limiga kiritilgan. Albatta ular formal jixatdan o'xshash, ammo funksional jixatdan boshqa-boshqa hodisalardir. O'zbek tilida so'z yasashi tilning ikki satxiga tegishli bo'lib, so'z yasashida ko'proq morfemalar bilan bog'liq bo'lganligi uchun u asosan morfemika bilan bog'langan. Tayyor yasalgan so'zda yasash hosilasi bo'lganligi sababli, leksikologiya materialiga aylanadi. O'zbek tilida birinchi bo'lib professor A.G'ulomov olib borilgan izchil izlanishlari tufayli, so'z yasashi ham ingliz tili kabi morfemika va morfologiya oraliqida aloxida bo'limda o'rganilishi kerak ekanligini birinchilardan bo'lib taklif qiladi. [12;5]

So'z yasash (word-building) o'zining umumiy nomi ostida lug'at tarkibini boyitishning juda ko'p xilma-xil usullarini o'z ichiga oladi. Hamma tillarda so'z yasashi uchun umumiy bo'lgan begli yangi leksema hosil bo'lishidir. Ingliz tilida so'z yasash tizimida ikkita asosiy yangi so'zlarni hosil qilish usullari: kompozitsiya va so'zlarni hosil qilish yoki derivatsiya usullari keng qo'llaniladi. Quyida o'zbek hamda ingliz tillarida so'z yasash usullarini ko'rib chiqamiz. [2;107]

NATIJA VA MUHOKAMA

Xind-Ovrupa tillar oilasining boshqa tillarida bo'lgani kabi, ingliz tilida kompozitsiya usulida so'zlar asosan ikkita mustaqil asosdan hosil bo'ladi. O'zbek tilida ham kompozitsiya turida so'zlar yasash mavjud bo'lib u sintaktik usul bilan hosil bo'ladi.

Kompozitsiya (composition)- so'z yasashida qadimgi, hozirgacha unumli usullardan biri hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq asoslarni bir-biriga qo'shish orqali yasaladi.

Blackboard (doska- qora +taxta)

Inkpot (siyoxdon -siyox + idish)

Textbook (darslik – matn + kitob)

Newspaper (gazeta- yangilik + qog'oz)

Snowdrop (bdaoychechak- qor + tomchi)

So'z yasashining bunday usuli ingliz tilida ko'proq ot va fe'llarni, ba'zan sifat, ravish va olmoshlar xosil qilishda ishlatiladi. [2;107]

O'zbek tilida ham kompozitsiya usuli maxsuldor so'z yasash turi hisoblanadi. O'zbek tilida ikki mustaqil so'z ma'lum grammatik shaklda birikadi va birikuvchi so'zlar orasida grammatik munosabat sezilib turadi. Bu usul bilan so'z yasash birdan ortiq yasovchi asosni ma'no va mazmun jixatidan biriktirib, yangi leksik so'z qo'shma so'z hosil qiladi.[17;30]. Qo'shma so'zni sodda so'zdan farqi shundaki, sodda so'zda ma'no bildiruvchi komponent bitta, qo'shma so'zda esa birdan ortiq.

Masalan:

Kungaboqar (kunga+ boqar)

Uchburchak (uch + burchak)

Yeryong'oq (er + yong'oq)

Oqqush (oq + qush)

Bilakuzuk (bilak + uzuk)

Ushbu misollarda keltirilgan so'zlarning barchasi ikki komponentdan tashkil topgan, ammo bir yaxlit grammatik ma'noga va fonetik butunlikka egadir. Qo'shma so'zlar orasida grammatik munosabat bo'lmaydi. Kompozitsion usulda so'zlar yasashi ingliz tilidagi kabi o'zbek tilida ham ot, sifat, son, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. [17;30]

Konversiya– so'zlarni boshqa so'z turkumiga ko'chishi natijasida hosil bo'ladigan so'z yasash turi. Zamonaviy ingliz tilida unumli bo'lgan morfologik so'z yasashidan ko'ra kamroq rivojlangan morfologik-sintaktik so'z yasash usuli, asl so'zning shakli o'zgarmagan xolda, yoki konversiya usulida, har doim yangi sintaktik va morfologik harakterga ega bo'ladi, chunki hosil

TILSHUNOSLIK

bo'lgan yangi so'z asl so'zdan farqli ravishda yangi so'z turkumiga oid bo'ladi.[2;107] Konversiya so'z yasash usulining hech qanday yasovchi birliklarsiz va miqdor o'zgarishsiz yangi so'z hosil qilishning yagona turidir. [4;92]

Ot	Fe'l
<i>arm/qurol, qo'l - to arm/qurollanmoq</i>	
<i>doctor/shifokor - to doctor/davolamoq</i>	
<i>carpet/gilam - to carpet/gilam bilan to'shamoq</i>	
<i>bottle/bonka - to bottle/bonkalarga quymoq, bonkada saqlamoq</i>	
<i>work/ish - to work/ ishlamoq</i>	

Fe'l	Ot
<i>to help/ yordam bermoq - help/yordam, yordamchi</i>	
<i>to spy/kuzatmoq - spy/josus</i>	
<i>to catch/ushlamoq - catch/ushlangan narsalar</i>	

Sifat	Fe'l
<i>calm/yuvosh/sokin - to calm/tinchlantirmoq</i>	
<i>dry/quruq - to dry/qurutmoq</i>	
<i>empty/bo'sh - to empty/bo'shatmoq</i>	
<i>yellow/sariq - to yellow/sarg'aymoq</i>	

Konversiya termini G.Suit tomonidan taklif etilgan. Bu so'z yasash usulini asosli yoki suffikslarsiz, so'z vazifalarini o'zgartirgan xolda so'z yasalishidir.

O'zbek tilida bu usul morfologik-sintaktik usulda so'z yasash deyiladi. Bunda so'zning turkumi o'zgaradi, natijada kontekstda sintaktik xolatning, gap va so'z birikmalarining kuchi bilan yuzaga keladi. [10;46] Yoki so'z formasining leksik ma'no kasb etishi bilan yangi so'zga aylanishi bilan yangi so'z hosil bo'lishi, ko'p ma'noli so'zlar orasidagi bog'lanishning ya'ni semantik aloqaning yo'qolishi natijasi semantik ma'noning uzilishi tushuniladi. Bunday xodisa tilning ko'p yillar davomida rivojlanishi natijasida asta sekin yuzaga keladi. [17;30]

Masalan: *Yupqa (qalin emas) sifat - yupqa (ovqat nomi) ot*
Ko'k (rang) sifat - ko'k (osmon) ot - ko'k (tikishning bir turi) ot - ko'k (o't o'lan) ot
Kun (sutkaning bir qismi) ravish - kun (quyosh, planeta) ot

Bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'z boshqa kategoriyadagi so'z o'rnida qo'llanishi ham mumkin. [10;46]

Masalan, *Ishlagan tishlar*- bu maqolda *ishlagan* so'zi asli fe'lining sifatdosh shakli ot o'rnida qo'llangan.

Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning- maqolida *katta, kichik* sifatlari ot o'rnida qo'llangan va ularning sintaktik vazifasi qo'chgan ya'ni so'z o'zining avvalgi sintaktik vazifasidan chekinib, yangi sintaktik vazifaga ko'chgan. Bundan chiqdi, uning sintaktik qurshovi - qanday so'zlar bilan bog'lanish holti ham o'zgargan. Bundan shuni anglash mumkinki, bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zning boshqa kategoriyaga o'tishi yangi so'z yasashning bir ko'rinishidir.

Affiksial so'z yasalishi yoki boshqacha qilib aytganda affiksatsiya yoki derivatsiya yoki so'z hosil qilish (derivation) ya'ni asosga so'z yasovchi elementlarni qo'shimcha va prefikslar qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish. Bunda so'z yasalishining prefiksli, suffiksli va prefiks-suffiksli usullari mavjud.

Masalan: *lucky* so'zi *luck* asosga -y qo'shimchasini qo'shish orqali, *unlucky* so'zi esa *lucky* so'ziga-un prefiksini qo'shish orqali so'z yasalmog'da.

Luck-luck+y (suffiks) = lucky (baxtli, sifat)
Un (prefiks) + luck + y (suffiks) = unlucky (baxtsiz, sifat)

Lucky hamda *unlucky* so'zlariga -ly ravish yasovchi qo'shimchani qo'shish orqali ravish yasaladi.

Luckily, unluckyly

O'zbek tilida affiksatsiya usulida so'z yasalishi keng qo'llanuvchi va unumli so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. So'z yasalishida suffiks ya'ni so'z yasovchi qo'shimcha so'z oxiriga qo'shiladi.

Ishchi - ish + chi
Ishxona - ish + xona

Ishla – *ish* + *la*

Terimchi – *terim* + *chi*

O'zbek tilida ingliz tilidan farqli o'laroq so'z yasash uchun prefikslar mavjud emas. Biroq tojik tilidan o'zlashgan ayrim so'z yasovchilargina so'z yasovchi asosga uning oldidan qo'shila oladi.

Notg'ri – *no* + *to'g'ri*

Serharakat – *ser* + *harakat*

Kamgap – *kam* + *gap*

Serunum – *ser* + *unum* [17;32]

O'zbek tilida so'zni yasama leksema deyish uchun, uning tarkibidagi yasalish asosi bo'lgan so'z ham, yasovchi affiks ham aniq ajralib turishi, yasalish asosi mustaqil leksema mavqeiga ega bo'lishi, boshqa so'zlar yasashda ham mustaqil asos bo'lib xizmat qilishi va affiks ham xuddi shunday xususiyatga ega bo'lishi kerak. *Ishchi*, *ishchan*, *serildiz*, *bechiqim* misollarida leksema va yasovchi affiks aniq ajralib turadi.

Beandisha, *bearmon*, *serfarzand*, *sergap*, *serhosil*, *noumid*, *noqobil* kabi so'zlarda yasalish asosi va yasovchi affiksi o'zbekcha bo'lmagan leksemalarda ham ma'noli qismlarga ajratiladi va yasama so'z deyiladi.[9;31].

Xona-, *noma*-, *goh*- kabi tojikcha leksemalar, o'zbek tilida mustaqil holda ishlatilib qolmay, *ishxona*, *oshxona*, *taklifnoma*, *ma'lumotnoma*, *sayohatnoma*, *sayrgoh*, *oromgoh* kabi so'zlar tarkibida yasovchi qism sifatida ishlatiladi. Leksemalar tarkibida ishlatilib yasovchi qism sifatida qo'llanilganligi sababli leksema shaklidan affiksoid shakliga o'tgan.[9;31] Shunday qilib, o'zbek tilida affiksatsiya usulida so'z yasalganda leksema uning asosi bo'lib xizmat qiladi, leksema yasovchi vazifasini affikslar (suffiks, qisman prefiks) ba'zan affiksoid bajaradi.

Fonetik-fonologik usul. Bu usul o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. Tovush almashishi. 2. Urg'uni ko'chirish orqali yangi so'z hosil qilish.

Tovush almashishi (sound interchange)- so'z yasalishining unumsiz usuli, bunda asosning fonetik shakli o'zgaradi.

Unli tovushlarni almashishi orqali so'z yasalishi:

bite (v) – *bit* (n), *food* (n) – *feed* (v), *sing* (v), - *song* (n)

Undosh tovushlar orqali so'z yasalish:

Prove(v)-*proof*(n), *to excuse* [z];(v) – *excuse* [s];[n],

to house [z];(v) – *house* [s];[n], *to grease* [z];(v) – *grease* [z];[n],

to close [z];(v) – *close* [s];(adj).

Aralash tovushlar almashishi orqali so'z yasalishi:

Bath-*bathe*, *breath*-*breathe*, *loss*-*lose*, *choice*-*choose*

O'zbek tilida so'zning tarkibida fonetik o'zgarish, ya'ni tovush o'zgarishi orqali yangi so'z yasash mavjuddir. Bunday yo'l bilan so'z yasash ikki xil amalga oshiriladi.

So'zning tarkibida fonetik o'zgarish qilish orqali yangi so'z yasaladi. Masalan: *tun* va *kun*, *bit* (*yarasi bitdi*, *ish bitdi*- tugallandi ma'nosida) va *but* (*tugal*, *fe'l* va *sifat*), *aka*-*uka*.

Bo'r – *bo'z* (*bo'z* so'zi oq tusni bildiradi; rangi *bo'zardi* – oqardi kabi, oq tusli mato ham *bo'z* deyilgan), *bo'r* so'zi ham oq, oqish predmetni bildiradi: *bo'r* – mel, *bo'ri* – oqish rangdagi jonivor, demak, qadimda *bo'r* va *bo'z* so'zlari bir-biri bilan aloqador bo'lgan, ular tovush o'zgarishi (*r-z*) bilan bir-biridan farqlangan-yasalgan.[10;22] Yana *tog'* – *tosh*, *ko'z* – *ko'rmoq*, *tosh* – *tish*, *qimir* – *qimiz* so'zlari ham fonetik usulda so'zlar yasalishiga misol bo'la oladi. Bu usulda so'z yasash qadimgi usullardan bo'lib, hozirgi tilimizda unumli so'z yasash usuli hisoblanmaydi. Ammo qadimda ham keng qo'llanilmagan. Bu usulning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, predmet, hodisalar, harakatlar ajralib-farqlanib borishi bilan ularning nomlari ham farqlanib borgan. Bunda bir so'z ham predmetning o'zini, ham uning harakatini bildirgan bo'lsa, keyinroq ular o'zakning tarkibini o'zgartirish orqali ikki so'zga aylantirilgan (*ko'r*-*ko'z*). Yangi so'zlarni bu usulda hosil qilishda, tovush almashtirish, tovushlarning qattiq-yumshoqligi, unilarning uzun-qisqaligi, undoshlarning takrorlanishi, tovushlarning o'rin almashtirishi kabi xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.[10;26]

Urg'uni ko'chirish bilan yangi so'zlar yasash.

Ilgari ingliz tilida so'z hosil qilish usullaridan biri urg'uni ko'chirish orqali yangi so'z hosil qilish turi bo'lgan. Zamonaviy ingliz tilida ba'zi so'zlar saqlanib qolgan, turli xil so'z turkumlariga

TILSHUNOSLIK

taaluqli va faqatgina urg'u bilan farqlanadi. Bunday so'zlarda ot va sifat so'z turkumiga mansub so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi, fe'llarda ikkinchi bo'g'inga:

I'mport (ot, import) – to *imp*o'rt (fe'l, import qilish)

Pre'sent (ot, sovg'a) – to *prese*'nt (fe'l, sovg'a qilish)

Fre'quent (sifat, tez-tez) – to *frequ*'ent (tez-tez tashrif buyurmoq)[2.108]

O'zbek tilida ham so'zning tarkibida fonetik o'zgarish ya'ni tovush o'zgarishi orqali yangi so'z yasash mavjuddir. Bunday yo'l bilan so'z yasash ikki xil amalga oshiriladi.

1. So'zning tarkibida fonetik o'zgarish qilish orqali yangi so'z yasaladi: Maslan: *tun* va *kun*, *bit* (yarasi *bitdi*, *ish bitdi*- tugallandi ma'nosida) va *but* (tugal, fe'l va sifat), *aka-uka*:

Bo'r - *bo'z*(*bo'z* so'zi oq tusni bildiradi; rangi *bo'zardi*- oqardi kabi, oq tusli mato ham *bo'z* deyilgan), *bo'r* so'zi ham oq, oqish predmetni bildiradi: *bo'r-mel*, *bo'ri*-oqish rangdagi jonivor, demak qadim *bo'r* va *bo'z* so'zlari bir-biri bilan aloqador bo'lgan, ular tovush o'zgarishi (*r-z*) bilan bir-biridan farqlangan-yasalgan. [10;22] Yana *tog'* - *tosh*, *ko'z* - *ko'rmoq*, *tosh* - *tish*, *qimir-qimiz* so'zlari ham fonetik usulda so'zlar yasalishiga misol bo'la oladi. Bu usulda so'z yasash qadimgi usullardan bo'lib, hozirgi tilda unumli so'z yasash usuli hisoblanmaydi. Ammo, qadimda ham keng qo'llanilmagan. Bu usulning asosiy hususiyatlaridan biri shundan iboratki, predmet, hodisalar, harakatlar ajralib-farqlanib borishi bilan ularning nomlari ham farqlanib borgan. Bunda bir so'z ham predmetning o'zini, ham uning harakatini bildirgan bo'lsa, keyinroq ular o'zakning tarkibini o'zgartirish orqali ikki so'zga aylantirilgan. (*ko'r-ko'z*). Yangi so'zlarni bu usulda hosil qilishda, tovush almashtirish, tovushlarning qattiq-yumshoqligi, unilarning uzun-qisqaligi, undoshlarning takrorlanishi, tovushlarning o'rin almashtirishi kabi hususiyatlariga e'tibor qaratilgan. [10;26]

2. Shuningdek urg'uni o'rmini ko'chirish orqali ham so'z yasash usuli mavjud. Bu usul ham fonetik so'z yasash usuli bo'lib, urg'uning o'rmini o'zgartirish bilan yangi so'z yasash:

Yangi (sifat)- *yangi* (ravish)

Hozir (ravish) - *hozir* (tayyor)

Tugma (ot) - *tugma* (fe'l)

Akademik (unvon)- *akademik* (nashr turi)[17;30]

Qisqartirish (clipping, shortening, abbreviation). Bunda asl so'z semantikasini, leksiko-grammatik kategoriyasini yo'qotmagan xolda bir yoki bir nechta tovushga qisqartirilib, natijada yangi nominativ birlik yoki invariantining yuzaga kelishi tushuniladi. Qisqartma so'zlar rasmiylik kam bo'lgan muxitda ishlatiladi va buning uchun so'zlovchi va tinglovchi nima haqida gap ketayotganini tushunishi va anglashi kerak bo'ladi. ingliz tilida leksik birliklarning qisqartmalari struktural jixatdan 3 turga bo'linadi. [4;161]

1. Klipping (Clipping) - boshqa so'zlarni qisqartirish orqali hosil bo'lgan so'zlar.

Masalan, *vacation-vac*, *telephone-phone*, *advertisement-ad or advert*, *examination-exam*, *gymnasium-gym*, *laboratory-lab*, *photograph-photo*, *professor-prof*.

Qisqartirish so'zni to'liq ifodalaydi, ammo u so'zning asosiy qismi bo'lishi shart emas na prosodik na semantik tomondan. Shuningdek, qisqartma so'zlar to'liq so'zlar bilan bitta konekstda yonma-yon ishlatilmaydi. Masalan, *exam* so'zi imtixon yoki test ma'nosini anglatadi, tibbiyot imtixonini va tibbiy tekshiruvlarni nazarda tutmaydi

2. Bosh harflar qisqartmasi (abbreviations and acronyms). So'z, ibora va gaplarning bosh harflaridan yangi so'z tariqasida tashkil topgan bo'lishi mumkin. Masalan,

LASER – light amplification by stimulated emission of radiation (nurlanishining stimulyatsiya qilingan emissiyasi bilan yorug'likni kuchaytirish) [18;33]

NATO-North Atlantic Treaty Organization (tashkilot nomi)

UFO- unidentified flying object (noma'lum uchar jism)

Quirk et al (1985) fikricha bu turdagi qisqartmalar o'z ichida ikki turga bo'linadi:

a) So'z kabi talaffuz qilinadigan qisqartmalar:

NASA -National Aeronautics and Space Admistration

radar -radio detecting and ranging

UNESCO -United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization

BASIC - Beginners' All-purpose Symbolic Instruction Code

COBOL -Common Business Oriented Language

b) Ingliz alifbosi xarflari orqali talaffuz etiladigan qisqartmalar:

C.O.D. = cash on delivery

VIP = very important person

FBI = Federal Bureau of Investigations

Qisqartmalardagi har bir harf bir so'zga teng yoki qisman so'zga va iboraga teng bo'ladi.

TV = television, *TB* = tuberculosis

ba'zi qisqartmalar eshitilgandek yozilish mumkin

Deejay - DJ = disk jockey, *Emcee - M.C.* = Master of Ceremonies

3. Blending (Blending) - ikki so'zning qismlarini bi r-biriga qo'shish orqali yangi hosil qilinadigan so'zlar, odatda bir so'zning boshki qismini ikkinchi so'zning oxirgi qismini qo'shish tarzida yuzaga keladi. (cf. Godby et. al, 1982)

Masalan, *smog* (*smoke+fog*), *brunch* (*breakfast+lunch*), *heliport* (*helicopter+airport*), *motel* (*motor+hotel*)

Quyidagi so'zlar blending orqali qisman qisqartirishning umumiy misollari:

Eurovision (*European+television*), *multiversity* (*multiple+university*), *newscast* (*news+broadcast*), *telecast* (*television+broadcast*), *travelogue* (*travel+catalogue*)

Quirk et.al. (1985) fikriga muvofiq Ingliz tilida so'z yasashda acronymy, clipping va blending qisqartirishning turlari yangi so'z yasashning sermaxsul usullaridandir. Ammo tadqiqotchilar orasida ingliz tilida so'zlarni qisqartirish yangi so'z yasash turiga kirishi haqida aniq fikr yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar (E.A.Zemskaya, Y.S.Kubryakova, P.M.Karashuk va boshqalar) "Qisqartirish - so'z yasash jarayonidir uning natijasida maxsus modellar, struktur-semantik sxemalar orqali hosil bo'lgan yasama birliklar paydo bo'ladi", desalar, boshqalari esa (R.Z.Ginzburg, S.S.Xidekel, G.Marchand va boshqalar) " Qisqartirishni so'zlarni modellashtirmagan holda so'z yaratish", deb ataydilar.

O'zbek tilida bunday usulda so'z yasash, so'z birikmasi tarkibidagi asosan otli birikmalarni turli tarzda qisqartirishdir. Qisqartma so'zlarning paydo bo'lishiga sabab, murakkab til birligini ixcham ifodalash usulidir. Hozirgi o'zbek tilida otlar yasash texnikasi jixatidan bir qancha ko'rinishlari mavjud. Qisqartirish bosh harflarini yoki birinchi bo'g'inni qoldirish orqali qisqartiriladi.

UzSSR, raykom, rayjirokom, ToshPI, Toshunivermag, OTM, FarDU.

O'zbek tilida bunday usulda so'z yasash A.Xojiev fikricha bu usul so'z yasashning mohiyati haqiqiy so'z yasash usuli emasligini aytib o'tadi. Sh.Raxmatullaev fikricha abbreviatura asli turg'un birikmaga teng atamani ixcham ifodalash uchun o'ylab topilgan, bunday qisqartmani so'z deb, so'z yasashining bir turi deb baxolash to'g'ri emas. Biz ham shu fikrga qo'shilgan holda, so'z yasashning asl maqsadi yangi so'z hosil qilishdir, lekin abbreviatsiya usulida so'z, so'z birikmalarining qisqartirilgan shakli beriladi. Qisqartma asl holiga keltirilsa ular yana so'z birikmasi holiga qaytadi.[12;30]

Leksemalarning ichida abbreviaturalar alohida o'rin kasb etadi. Abbreviaturalar so'z yasashi hosilasi bo'lgan yasama so'zlar emas, uning so'z yasashiga hech qanday aloqasi yo'q. Abbreviatura bilan to'liq ko'rinish bir invariantning 2 xil varianti - biri to'liq namuna, ikkinchisi esa qisqargan variantidir. [15;50]

BMT - Birlashgan Millatlar tashkiloti

DHH - Davlat havfsizlik hizmati

Shunday qilib, qisqartirish (abbreviatsiya) usuli yordamida yangi so'z leksema hosil bo'lmasligi natijasida, bu usulni so'z yasash usuli deb atab bo'lmaydi.

Takrorlash (reduplication) Asosni takrorlash orqali so'zlar yasashi. Bunday so'zlar morfologiya bo'limida o'rganishga doir, chunki hosil bo'lgan leksik birlik albatta tovushlar jamlanmasi (so'z) bilan bog'liq. Agar asos yoki negiz to'lalgicha takrorlansa bu jarayon to'liq takror(complete or total reduplication) deb ataladi va hosil bo'lgan takror qo'shma takror (repetitive compound) deb aytiladi. Agar o'zak yoki asosning bir qismi takrorlansa, bu jarayon qisman takrorlash (partial reduplication) deb aytiladi va takrorlanuvchi qism takroriy bulak (reduplicative) deb aytiladi. Bunday takrorlar o'zak yoki asosning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi mumkin,(cf. Nida,1949); biroq, takrorlar so'zning boshida va o'rtasida odatiydir.

Masalan: *mur-mur, yo-yo(o'yinchoq nomi)*

TILSHUNOSLIK

Ingliz tilida qisman takrorlash, to'liq takrorlarga nisbatan ko'p uchraydi. R. Quirkning fikricha har ikki turdagi takrorlar- **takroriy** yoki **ohangdosh (reduplicatives or jingles)** so'zlar deyiladi. To'liq takrorlarga misol,

bye-bye (xayr), *goody-goody* (xushomadgo'y insonlarga nisbatan)

Qisman takrorlarga misol

walkie-talkie (ratsiya), bundada takrorlar dastlabki undosh tovushlarida farq qiladi, yoki o'rta unli tovushlarida, *criss-cross*(kesishmoq yoki kesishgan).

Tadqiqotchilarning fikriga asosan ko'pgina takroriy so'zlar rasmiy va odatda norasmiy tarzda ishlatiladi, chunki ular ko'proq ota-ona va farzand orasidagi muloqotda namoyon bo'ladi.

Masalan, *din-din* (dinner)- kechki taom

R. Quirk ta'kidlashicha, takroriy so'zlarning asosiy ifodalanishi quyidagicha:

1. Tovushlarga taqlid, rat-a-tat (eshik qoqish), tick-tack (soat ovozi), ha-ha (kulish), bow-wow (itning xurishi)

2. Qo'shimcha harakatga bildirganda, see-saw (kachelya), flip-flop (slansы- oyoq kiyimi), ping-pong (stol tenisi)

3. Beqarorlik, bema'nilik, nosamimiylilikni ajratish uchun, higgledy-piggledy, hocus-pocus, wishy-washy, shilly-shally

4. Ma'noni kuchaytirish uchun, tip-top, teeny-weeny

Arnoldning fikriga ko'ra takrorlash orqali hosil bo'lgan leksik birliklarda yasaliş formasi bor va bu albatta so'z yasaliş bilan bog'liq bo'ladi. [1;108] Ammo hozirgi kunda so'z yasaliş tasnifida so'zlarning asosini takrorlash orqali yangi so'zlar yasaliş kiritilmagan.

O'zbek tilida ham ingliz tili singari takrorlash orqali so'z yasaliş usuli mavjud va u so'z yasaliş tizimida yangi so'zlarni hosil qilishning qadimgi usulidan biri hisoblanadi. Maslan, *paqpaq* so'zni takrorlab, qo'shma holga keltirish orqali yangi so'z hosil qilingan. O'zbek tilida takrorlarning ko'rinishlari ko'p, oddiy takrorlar va ikkilantirish orqali yuzaga kelgan takrorlar. Oddiy takror ma'noni kuchaytirish, emotsional bo'yoqdorlikni, intensivlikni oshirish uchun hizmat qiladi.

Masalan, *tezroq, tezroq yur.*(tezlik ma'nosi kuchaytiriladi) *U tez-tez gapirdi.*(Bu takror ikkilanish bo'lib u harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi ma'nolarni ifodalaydi.)

Tur-tur ketamiz, -dedi akasi. (Ertak)

Ertalab tongda tur-tur boshlandi. (ertalab uyg'onish)

Aya, nega bibip kelyapti. (Mushtum) *bibip, bibip* -bolalar nutqida avtobus. [9;38]

Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, takrorlash (reduplikatsiya) o'zbek tilida ikki xil xarakterga ega: *so'z yasash vositasi* va *grammatik vosita*. Grammatik xarakterga ega bo'lganda, u predmetning ko'pligi, belgining oshirilishi, ma'noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi va uzoq davom etishi va xakazo. Takrorlar orqali yangi so'zlarni hosil bo'lishi bu odamlarning nutqi, zamon talabi bilan bog'liqdir. Masalan, *manmansiramoq* - o'zni yuqori olmoq yoki xudbin ma'nosida. Bu so'z salbiy ma'noda ishlatilib, olmoshning ikkilanishidan hosil bo'lgan.

Takrorlash (reduplication) – asosni takrorlash orqali so'zlar yasaliş. Bunday so'zlar morfologiya bo'limida o'rganishga doir, chunki hosil bo'lgan leksik birlik, albatta, tovushlar jamlanmasi (so'z) bilan bog'liq. Agar asos yoki negiz to'laligicha takrorlansa, bu jarayon to'liq takror (complete or total reduplication) deb ataladi va hosil bo'lgan takror qo'shma takror (repetitive compound) deb aytiladi. Agar o'zak yoki asosning bir qismi takrorlansa, bu jarayon qisman takrorlash (partial reduplication) deb aytiladi va takrorlanuvchi qism takroriy bo'lak (reduplicative) deb aytiladi. Bunday takrorlar o'zak yoki asosning boshida, o'rtasida va oxirida kelishi mumkin (cf. Nida, 1949); biroq, takrorlar so'zning boshida va o'rtasida kelishi odatiydir.

Masalan: *mur-mur, yo-yo*(o'yinchoq nomi).

Ingliz tilida qisman takrorlash to'liq takrorlarga nisbatan ko'p uchraydi. Quirk et.al. ning fikricha, har ikki turdagi takrorlar – **takroriy** yoki **ohangdosh (reduplicatives or jingles)** so'zlar deyiladi. [21;868]

To'liq takror: *bye-bye* (xayr), *goody-goody* (xushomadgo'y insonlarga nisbatan).

Qisman takror: *walkie-talkie* (ratsiya). Bunda takrorlar dastlabki undosh tovushlarida yoki o'rta unli tovushlarida farq qiladi: *criss-cross*(kesishmoq yoki kesishgan).

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ko'pgina takroriy so'zlar rasmiy va odatda norasmiy tarzda ishlatiladi, chunki ular ko'proq ota-ona va farzand orasidagi muloqotda namoyon bo'ladi.

Masalan: *din-din* (dinner) – *kechki taom*.

Quirk et.al. ta'kidlashicha, takroriy so'zlarning asosiy ifodalanishi quyidagicha:

1. Tovushlarga taqlid: *rat-a-tat* (*eshik qoqish*), *tick-tack* (*soat ovozi*), *ha-ha* (*kulish*), *bow-wow* (*itning hurishi*).

2. Qo'shimcha harakat bildirganda: *see-saw* (*kachelya*), *flip-flop* (*slansi- oyoq kiyimi*), *ping-pong* (*stol tennisi*).

3. Beqarorlik, bema'nilik, nosamimiyligni ajratish uchun: *higgledy-piggledy*, *hocus-pocus*, *wishy-washy*, *shilly-shally*.

4. Ma'noni kuchaytirish uchun: *tip-top*, *teeny-weeny*. [21;868]

Rus tilshunos olimi I.V.Arnoldning fikricha, takrorlash orqali hosil bo'lgan leksik birliklarda yasaliş formasi bor va bu, albatta, so'z yasaliş bilan bog'liq bo'ladi. [2;108] Ammo hozirgi kunda so'z yasaliş tasnifida so'zlarning asosini takrorlash orqali yangi so'zlar yasaliş kiritilmagan.

Takror shakliga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) to'la takror (*to'p-to'p*) va 2) qisqargan takror (*qip-qizil*). Turkiy tillarda sifatlarni qisman takrorlash orqali ularning orttirma darajasi hosil qilinadi. Bu usul bilan, ya'ni reduplikatsiya usuli bilan orttirma daraja yasalganda, takrorning birinchi qismi o'z shaklini birmuncha o'zgartiradi. Masalan: *kap-katta*, *op-ochiq*, *oppa-ochiq*, *ko'm-ko'k*, *qop-qora*. [1;107]

O'zbek tilida ham ingliz tili singari takrorlash orqali so'z yasaliş usuli mavjud va u so'z yasaliş tizimida yangi so'zlarni hosil qilishning qadimgi usulidan biri hisoblanadi. Masalan, *paq-paq* so'zni takrorlab, qo'shma holga keltirish orqali yangi so'z hosil qilingan. O'zbek tilida takrorlarning ko'rinishlari ko'p, oddiy takrorlar va ikkilantirish orqali yuzaga kelgan takrorlar. Oddiy takror ma'noni kuchaytirish, emotsional bo'yoqdorlikni, intensivlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Masalan, *tezroq*, *tezroq yur.* (tezlik ma'nosi kuchaytiriladi). *U tez-tez gapirdi.* (Bu takror ikkilanish bo'lib u harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi kabi ma'nolarni ifodalaydi.)

Tur-tur ketamiz, – dedi akasi. (Ertak)

Erta tongda tur-tur boshlandi. (ertalab uyg'onish)

Aya, nega bibip kelyapti. (Mushtum) *Bibip, bibip* – bolalar nutqida avtobus [10;39]

Bundan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, takrorlash (reduplikatsiya) o'zbek tilida ikki xil xarakterga ega: *so'z yasash vositasi* va *grammatik vosita*. Grammatik xarakterga ega bo'lganda, u predmetning ko'pligi, belgining oshirilishi, ma'noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi va uzoq davom etishi va hokazo. Takrorlar orqali yangi so'zlarni hosil bo'lishi bu odamlarning nutqi, zamon talabi bilan bog'liqdir. Masalan, *manmansiramoq* – o'zni yuqori olmoq yoki xudbin ma'nosida. Bu so'z salbiy ma'noda ishlatilib, olmoshning ikkilanishidan hosil bo'lgan.

Juft so'zlar – o'zbek tilida so'z yasalişining bir usuli deb qaraladi. Juft so'zlar grammatik jihatdan to'liq shakllangan ikki leksemani teng holatda qo'shib tuzilgan leksemaga aytiladi. [9;32]

Juft so'zlarni ikki turga ajratishimiz mumkin:

1. Komponentlari gomogen, ya'ni sinonimlashgan: *qavmi-qarindosh*, *yoru-do'st*, *osmon-falak*.

2. Komponentlari getrogen ya'ni antonimlashgan: *er-xotin*, *do'st-dushman*, *katta-kichik*, *kun-tun*.

Juft so'zlarning qismlari bir so'z turkumiga va bir xil grammatik shaklga ega bo'ladi. Juft so'zlar yangi leksema hosil qiladi, deb hukm chiqarib bo'lmaydi. Sh.Rahmatullayevning fikriga asosan, juft leksemalarda leksema yasalmaydi, balki leksema tuziladi. [9;32]

Demak, yasaliş bilan hosil qilishni bir-biridan farqlashimiz va ularni derivatsiya sohasiga tatbiq etishimiz lozim sanaladi. Masalan, sonlar va olmoshlar yasalmaydi, biroq hosil qilinadi. A.Hojiyev ham o'z ishlarida juft so'zlarni so'z yasaliş usuli sifatida qaramaslikni va uni qo'shma so'zlarning yasaliş bilan aloqasi yo'qligini ta'kidlaydi. [14;43] O'zbek tilida juft so'zlar jamlik, umumlashtirish, fikr almashinuvida nozik ma'no ottenkalarini ifoda etish uchun xizmat qiladi.

Ular yangi so'z yasamasa-da, takroriy so'zlar kabi xarakterlanadi, ya'ni *so'z yasaliş xarakteri* va *grammatik xarakterga* egadir. *Oyoq-qo'l*, *past-baland*, *orzu-umid*, *sekin-asta*, *tevarak-atrof* kabi so'zlarda grammatik ma'no bor. Juft so'zlar, kontekstning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ramziy ma'noda qo'llanilishi ham mumkin va bu bilan yangi ma'no kasb etadi.

TILSHUNOSLIK

Masalan, Hayotning yaxshi-yomon, og'ir-yengil kunlari, har xil sharoitlari, *Yusufbek hojining: -O'g'lim yosh, sen dunyoning issiq-sovug'ini totishga va mening ishongan kishimsan.. – deb ta'kidlashi.. quloqlari ostida takrorlangandek bo'lar edilar.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

Issiq-sovuq taomlar, kundalik yeyiladigan, ichiladigan narsalar, insonning holati, ahvoli, *Temir polvonning o'g'il-qizlari ahyon-ahyon uning issiq-sovug'idan xabar olib turishardi.* (Q.Kenja, Notanish gul).

Kishini go'yo biror kimsaga "isitadigan" yoki undan "sovitadigan" amal, duo va shu kabi narsalarni ifodalaydigan issiq-sovuq, irim-sirim kabi juft so'zlar o'tlashib, yangi leksemaning vujudga kelishiga xizmat qilgan: *Keyingi qildirgan issiq-sovug'i kor qildi, shekilli, birato'lasiga Marg'ilonni tiliga olmayoq qo'ydi.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar). (O'TIL. II. 2020.235)

Ingliz tilida juftlab so'z yasash usuli mavjud bo'lmasa-da, juft so'zlar mavjud. M: *pros and cons (yaxshi va yomon), ups and downs (past-baland), ladies and gentlemen, black and white.*

Teskari yasash – (backformation yoki backderivation) – ingliz tilida aksariyat hollarda ot so'z turkumidagi so'zning qo'shimchasi olib tashlanib, fe'l so'z turkumiga aloqador so'z hosil qilishdir.

Masalan, *television (n) (televizor- ot) → televise (v) (televideniya orqali namoyish etmoq-fe'l); burglar (n) (bosqinchi, o'g'ri) → burgle (v) (bostirib kirmoq, o'g'irlamoq-fe'l) swindler (n) (firibgar, yolg'onchi -ot) → swindle (v) (aldamoq, firibgarlik qilmoq – fe'l).*

Bu usulda so'zlarni yasash tarixiy tahlilni talab etadi, chunki ular so'zlarning kelib chiqishiga bog'liq bo'ladi. Bu juftliklar o'zining semantik ma'nosini yo'qotmagan holda shakllanadi.[16;167]

O'zbek tilida esa bunday usulda so'z yasash uchramaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillari boshqa til oilalariga mansub bo'lsa ham so'z yasalishi ma'lum darajada umumiylikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Har ikki tilda eng sermahsul va yetakchi so'z yasash usuli affiksatsiya hamda kompozitsiya ekanligi, fonetik usul deyarli o'z mahsuldorligini yo'qotgani so'z yasalishining umumiy belgilaridir. Garchand o'zbek tilida, A.Hojiyev fikriga ko'ra, kompozitsiya usulida so'zlar yasalishi rad etilgan bo'lsa-da [12;10], tilda qo'shma so'zlarning mavjudligi, u tilda mavjud leksik birliklar asosida hosil bo'lganligi, so'z yasalishining asosiy qoidalardan bo'lgan yangi lug'aviy ma'no hosil qilishi, lug'at tarkibiga kiritilganligi uni yangi so'z yasash usuli tarkibiga kiritish mumkin deb hisoblayotganlar ham bor.[19;1647]

Ingliz va o'zbek tilida affiksatsiya usulida so'zlarning yasalishida suffiks hamda prefikslarning ishlatilishi ham ularning universalligiga misol bo'la oladi. (o'zbek tilida prefikslar boshqa tildan o'zlashgan bo'lishiga qaramasdan.)

Leksemalar qaysi usul bilan hosil qilinmasin, yangi leksema yuzaga kelganidan keyin u til birligiga aylanadi; bu jarayon yakunlanganidan so'ng bo'ladigan jarayon bu til birligining ichki tahlili. So'z yasalishi har bir tilda mavjud va u doimiy jarayon bo'lganligi uchun va tilning lug'at fondining boyishida muhim o'rin tutganligi uchun har bir tilda bu tizimda universal hamda farqli jihatlar mavjud bo'lishi tabiiydir. Vaqt o'tgani sari tilshunoslik rivojlanib boraveradi va tilda yangi so'zlar paydo bo'lishi davom etaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азизов О. Тилшunoslikка кириш. –Тошкент: Уқитувчи, 1996.
2. Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие. — М.:Высш. шк., 1991.
3. Арбекова Т.И. Лексикология английского языка.– М., 1977.
4. Бортничук Е.Н., Василенко И.В., Пастушенко Л.П., Слово образование в современном анлийском языке. – Киев: "Вища школа", -1988, 260с
5. Фуломов А. Ўзбек тилида сўз ясаш йўллари ҳақида. – Тошкент, 1949.
6. Фуломов А. Ўзбек тилида тарихий сўз ясалиш масалалари: Фил.фан.док. дисс. Автореферат. – Тошкент, 1955.
7. Мирзакулов Ш. Ў. Ўзбек тилида сўз ясалиш маъноси ва парадигмаси. АҚД. – Самарқанд, 1995.
8. Нурмонов А. Ўзбек тилшunosлиги тарихи.– Тошкент: Ўзбекистон, 2002
9. Раҳматуллаев Ш., Ҳозирги адабий тили. – Тошкент: Университет, 2006
10. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975. №1
11. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Уқитувчи, 1989.
12. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Тошкент: Уқитувчи, 2007.

13. ҲожиёвА. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари.– Тошкент: Фан, 2010
14. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент, 1963.
15. Ҳожиёв А., Нурмонов А., Махмудов Н., Спорные вопросы словообразования тюркских языков. - Советская тюркология, 1989, №3
16. Хоритончик З.А. Лексикология английского языка. – Минск: Высшая школа, 1992.
17. Сапоев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент, 2009
18. Султонова С.М. Национально-культурное своеобразие суффиксального словообразования в русском, казахском и английском языках.–Уфа. 2020.
19. Шарипов Г.Ф., Аликулова М.Б. Сўз ясалиш тарихига доир муносабат/Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 1639-1648
20. Valerie Adams. An Introduction to modern English Word-Formation.– London and New York: Longman, 1973.
21. Quirk R et al. A Grammar of contemporary English. – London: Longman, 1972
22. Zapata A. Types of Words and Word-Formation Processes in English. Ingle's IV, (B-2007), -1-23p